

TEXNIK YO'NALISHLARDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARGA INGLIZ TILINI  
O'RGATISH JARAYONIDAGI SIFATNI TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR

G.I Rashidova

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,*

*“Ingliz tili nazariy aspektlari 3” kafedrası o'qituvchisi*

**Y.B.Axunova (Abdullajonova)**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,*

*3-kurs, 2034-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish qaratilayotgan e'tibor, ta'lim berish jarayonidagi muammolar, ularni bartaraf etish uchun takliflar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ingliz tili, ta'lim sifati, tarjima, texnika yo'nalishlari, til o'rgatish, ta'lim jarayoni.*

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishga bo'lgan e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan magistratura va doktorantura bosqichlariga qabul jarayonlarida xorijiy til sertifikatlari talab qilinishi ham bejiz emas. Shuningdek bugungi kunda ilmiy hamjamiyatda va texnika sohasida ingliz tilida muloqot olib borish boshqa xorijiy tillarga nisbatan kengroq foydalanilmoqda. Ingliz tilini texnik yo'nalishlarda o'rgatish masalasida ma'lum bir muammolar mavjud bo'lib, ta'lim sifati ta'minlashda asosiy e'tibor berish dolzarb muammolardan biridir.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining O'zbekiston xalqi va Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida “Ta'lim sifati oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to'g'ri yo'lidir” deya ta'kidlab o'tdilar, ushbu shior biz yoshlarni jamiyat taraqqiyotini sifatli ta'lim orqali yuksak darajalarga olib chiqish imkoniyati borligini isbotlamoqda. Shuningdek 2023 yilni “Insonga ehtibor va sifatli ta'lim yili” deb e'lon qilinishi sifatli ta'lim berish va sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yanada mustahkamlash bo'yicha tizimli yondashuv zarur ekanligini bildirmoqda. Ta'lim va fan asosiy ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish omili ekanligini saqlab qolgan holda, halqaro aloqalar vositasida iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning eng asosiy shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Mutaxassislar tomonidan yuksak darajagi muhim ma'lumotlarni almashinishi ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi garantiga aylanmoqda [1].

Zamonaviy axborot almashinuvi jarayonining tezkor kengayishi va axborot texnologiyalagiyaning jadal rivojlanishi sharoitida ma'lum bir mamlakatlar ilmiy potentsialini oshirish, hamda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan keng qamrovli ishlarni olib borish har qanday davlatni stabil rivojlanishini tahminlab qolmaygina, uning dunyo hamjamiyatidagi mavqeini oshiradi [2].

Davlat rivojlanishini ta'minlashda muhandis mutaxassislarni xorijiy tillarni bilish darajasi asosiy rol o'ynaydi. Chunki xar bir muhandis xorijiy ilm-fan yutuqlari, sanoat namunalari, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur [3]. Bugungi kundagi globallashuv sharoitida jahon xorijiy tillaridan biri bo'lgan ingliz tili fan-texnika sohasidagi yangi, innovatsion yutuqlarni izhor qilinadigan ilmiy jurnallar aksariyatining rasmiy tili sifatida foydalaniladi. Tarjimon orqali ilm-texnika va sanoat yutuqlaridan foydalanilganda, asosiy ma'no bir tomonda qolib ketib, ma'nodosh yoki umuman boshqa ma'no beruvchi so'zlar qo'llanilish holatlari uchrab turadi.

Ammo bugungi kundagi xorijiy tillarni o'qitish jarayonida bir qator kamchiliklar mavjud. Ya'ni xorijiy tillarni o'qitishda asos qilib, rus tilidan tarjima qilingan adabiyotlar hali-hanuzgacha ishlatib kelinmoqda, shuningdek xorijiy tilni o'qitishda adabiy tilni o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda, xorijiy tillardagi lingvistik, orfografik, stilistik va boshqa tilshunoslikka oid bo'lgan qonun-qoidalarni o'rgatish asos qilib olinib, xorijiy tilni o'rganish uchun sarflanadigan vaqt ko'p ortib ketmoqda. Lekin bugungi kunda texnika yo'nalishida faoliyat olib borayotgan, yoki tahsil olayotgan talabalar uchun birinchi navbatda muloqot darajasidagi, ya'ni o'z fikrini yetkaza oladigan darajadagi xorijiy til ko'nikmalari yetarli bo'ladi deb hisoblaymiz. Chunki muloqot qilishda lingvistik, orfografik, fonetik yoki boshqa til qoidalari asosiy rol o'ynamaydi. Davlatimizda "Uchinchi Renessans"ni qurishda xorijiy ilm-fan yutuqlari, sanoat namunalari o'rganib, yangi muhandislik yechimlari orqaligina oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajara olamiz. Mavjud ilm-fan yutuqlarini, sanoat namunalari bilan tanishish uchun til qoidalari bo'yicha tarjima qilib o'rganish shart emas, buning uchun malakali muhandis-texnik xodimlar internet tarmoqlaridagi mavjud minglab tarjimon dasturlaridan foydalanishlari mumkin, ammo yuzma-yuz muloqot texnikadagi muammolarni yechishda, yangi innovatsion yechimlar orqali yangi turdagi mahsulotlarni yaratish imkoniyatlarini beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, texnik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar va ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarni muloqot darajasidagi xorijiy tillarni o'rganish imkoniyatlarini yaratishimiz zarurdir, bunda xorijiy tillardagi til qoidalari o'rgatishdan ma'lum darajada voz kechishimiz kerak.

Xorijiy tillarni o'rgatish jarayonidagi yana bir muammolardan bir – bu til o'rgatish faqatgina adabiy so'zlar, jummalarni o'rgatishga yo'naltirilganligidir.

Misol uchun ingliz tilini o'rgatish jarayonida "tolerance" so'zi "bag'rikenglik, tolerantlik" deb tarjima qilinadi, ammo texnik adabiyotlarda "**tolerance**" so'zi "**ruxsat berilganlik**" yoki "**qo'yim-qo'nim** (bahzi texnik adabiyotlarda)" yoki ruscha "**dopusk**" so'zini ma'nosini beradi. Ya'ni bu so'z bilan mahsulot o'lchamidagi ruxsat berilgan chetga chiqish qiymatlari izohlanadi.

Yana bir misol sifatida «*The breath level for a 'articular row is the average of two outboard breath temperature sensors of that row*» jumlasini olsak «*Muayyan*

*qator uchun nafas olish darajasi ushbu qatordagi ikkita havo harorati sensorining o'rtacha ko'rsatkichidir» deb tarjima qilishimiz mumkin, bu yerda «breath level - nafas olish darajasi» deb tarjima qilingan, ammo ma'no jihatidan muhandislar «havo purkash darajasi» deb tushunadi.*

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda, texnika yo'nalishlar va muhandislar uchun xorijiy tillarni o'rgatish tizimini tubdan takomillashtirish kerak ekanligi ayon bo'lmoqda. Shuningdek xorijiy tillarni o'rgatishda texnik tarjimonlar kursini yaratish, o'zga tillardagi so'zlarning texnika yo'nalishida ma'nodoshlari lug'atlarini tuzishni taklif qilaman.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil uchun Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi/20.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. Qayumov B.A. Ilg'or xorijiy davlatlardagi ilmiy daraja tizimlari tahlili. //“Ilm-fan va innovatsion rivojlanish”. 2020. – №.3. – 136-147 b.
3. Qayumov B. A., Abdullajonova Yu. Oliy ta'limni transformatsiya jarayonida kredit-modul o'qitish tizimini tatbiq etish pedogog va talaba nigohida //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. NUU Conference 1. – S. 118-120.